

KORREKSION MASHG'ULOTLARDA KAR BOLANING NUTQIY NAFASI USTIDA ISHLASH USULLARI**Djurayeva Sohiba Barat qizi**

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Xolmo'minov Xusniddin Sherali og'li

JDPU Surdopedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqning tovush madaniyati ona tilidagi tovush, so'z va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalarini shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Nutqiy nafas olish ko'nikmalarini shakllantirishda o'yinli mashqlardan samarali foydalalanish texnikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, korreksion mashg'ulotlar, kar bolalar, nutqiy nafas, nafas mashqlari.

Annotation: This article presents opinions on the sound culture of speech, the ability to clearly pronounce sounds, words, and phrases in one's native language, correct speech breathing, as well as the ability to adequately use the power of voice, the formation of a normal rhythm of speech and various intonational means of expressiveness. The technique of effectively using game exercises in the formation of speech breathing skills has been illuminated.

Keywords: Speech, corrective exercises, deaf children, speech breathing, breathing exercises.

Nutq-insonning eng oliy murakkab ruhiy funksiyalaridan biri bo'lib, ijtimoiy mehnat jarayonida insonlar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan. Nutq yordamida inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni idrok etadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir¹» - degan edi rus pedagogi K.D.Ushinskiy.

Normal nutq asoslarini nafasni to'g'ri taqsimlay bilish, har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va aniq diktsiya (lotincha "diction"-talaffuz) ya'ni so'zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so'zlash malakasini egallash, adabiy talaffuz normalarini hosil qilish, fonematik eshitish idrokining (so'zlar tarkibidagi tovushlar va fonemalarni ajratish qobiliyati) rivojlanishi kabi eng muhim shartlar asosida egallash lozim. Bola nutqini meyorida rivojlanishi nutqni to'g'ri tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda normal nutqni rivojlanishiga sabab bo'luvchi korreksion ishlar quyidagi vazifalar asosida amalga oshirilishi kerak.

1. Kar bolada nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash asosida biron-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini aniqlay olishi hamda nutq sur'ati va ritmini qabul qila olish faoliyatni asta sekin rivojlantirib borish;
2. Nutqiy nafas olish ustida ishlash ya'ni bolani asta sekin chuqur nafas olib kuchli, davomli va tejimli nafas chiqarishga o'rgatishdan iborat bo'lib, Nafas uzunligi so'z va gaplarni qo'shib aytishga hamda tinglovchiga nutqni tushunishiga yordam beradi.
3. Artikulyatsion apparatni rivojlantirish;

¹ D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.

4. Muloqot madaniyatidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini shakllantirish;
5. Har bir tovushni hamda so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli ya'ni o'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari me'yoriga mos holda talaffuz qilishga o'rgatish ishlarini samarali tashkil etish, korreksion maqsadga yo'naltirilgan ta'lim faoliyatining asosini tashkil qiladi.

Nutqning hosil bo'lishida hiqildoqda joylashgan ovoz boylamlari, muskullar bilan birga, til lablar, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i hamda yuz va peshona suyaklari orasida joylashgan qo'shimcha kovaklari, halqum, kekirdak, bronxlar va o'pkalar faol ishtirok etadi. Nutqiy nafas olish o'z-o'zidan ro'y beradigan nonutqiy nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, nafas olish o'zining davomiyligi bo'yicha nafas chiqarishga deyarli teng bo'ladi. Nutqiy nafas olish og'iz orqali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro'y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darhol nafas chiqariladi, so'ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saqlanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi. Kar bolalar nonutqiy nafas olishga o'rgangan bo'lib nafasni uzoq vaqt ushlab turishga qiynalishi nafaqat ularning nafas paylari ishini noto'g'ri yoki yomon boshqarishi, balki fonatsiyada ovoz paylarining harakati to'liq bo'lmasligi hisobiga kechadi. Artikulyatsiya vaqtida ovoz paylari va keragidan ortiq kuch berish ham nafasni ushlab turish va nutq vaqtida uni to'g'ri taqsimlashni qiyinlashtiradi. O'pkadan chiqadigan havo oqimining hiqildoqda joylashgan ovoz boylamlariga urilishi natijasida tovush hosil bo'ladi. Demak, tovush talaffuzi nafas chiqarish jarayonida amalga oshiriladi. Oddiy nafas olgandagi havo nutq uchun kamlik qiladi. Asta sekin chuqur nafas olib, kuchli davomli va tejamli nafas chiqarish so'z va gaplarni qo'shib aytishga va tinglovchiga nutqni tushunishiga yordam beradi. Nutq so'zlayotganda nafas chiqarish, nafas olishga qaraganda ancha cho'ziqroq davom etadi. Shu sababli, tovushlar shakllanishida nutqiy nafas olish eng muhim omildir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nafas muskullarini to'g'ri ishlata olmasligi, artikulyatsion apparatining nafaolligi sababli nafasni tez chiqarishga odatlangan bo'lib, unli, sonor va frikativlarni bir nafasda aytishga qiynaladi. Shuning uchun kar bolani davomli va tejamli nafas chiqarishga o'rgatish zarur. Kar bolalarni talaffuzga o'rgatishda nutqiy nafas ustida ishlash korreksion faoliyatining birinchi bosqichi hisoblanadi. Nutqiy nafas ustida ishlashdan asosiy maqsad kar bolalarda to'g'ri nafas olish qobiliyatini rivojlantirish, so'zlarni va qisqa iboralarni bitta nafas chiqarishda talaffuz qilish malakasini shakllantirish, nafasdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu jarayonda diafragma, qorin va qovurg'alararo muskullarni hamda artikulyatsion motorikani mustahkamlovchi maxsus mashqlar hamda nafas kuchi va davomiyligini ta'minlovchi logopedik o'yinlar olib boriladi. Nafas mashqlariga qaratilgan barcha logopedik o'yinlar o'pka ventilatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Nafas mashqlari ustida me'yordan ortiq ishlash ham maqsadga muvofiq emas. Nafas mashqlari maxsus jihozlangan, toza shamollatilgan xonada olib boriladi. O'qitishning birinchi kunlarida nutqga bog'liq bo'lmagan har xil nafas mashqlari bajartiriladi. Keyinchalik unli, sonor, frikativ va bo'g'inlarni cho'zib aytirishga o'rgatish zarur. Bu jarayon so'zlarni baland va qo'shib talaffuz qilish imkonini beradi. Pedagog korreksion mashg'ulot jarayonida nafas mashqlarini qat'iy qoidalar asosida o'tkazishi kerak. Kar bolalar nafas olganida ko'krak qafasining kengayishi, nafas chiqarganida esa torayishga hamda talaffuz jarayonida nafas olishni burun orqali emas og'iz orqali olishini nazorat qilishi lozim. Mashg'ulotlar jarayonida nafas chiqarishning kuchi va uzunligini rivojlantirish uchun quyidagi nafas mashqlaridan foydalanish mumkin.

“Gulzorda” mashqi

Ushbu mashqning maqsadi: kar bolalarni chuqurroq nafas olib, davomli va tejamli nafas chiqarishga o'rgatish;

O'tkazish texnikasi: pedagog bolalarga harakatlar ketma-ketligini tushuntirib turadi. Taqlid asosida bolalar ushbu metodni bajarishadi.

- "... bolalar, tik holda turamiz. Chap qo'limizni nazorat uchun qoringa, o'ng qo'lni qovurg'aga qo'yamiz: «puffff» deb nafas chiqaramiz. Bunda qorin muskullari qisqaradi. Keyin xuddi gul hidlagandek tasavvur qilib nafas olamiz. Bunda qorin oldinga chiqadi, qovurg'a kengayadi. Nafas olishni qorinning keskin harakati bilan to'xtatiladi, qorinning pastki qismi qisqaradi. Bundan so'ng sekin va bir tekis nafas olib, qorin va qovurg'ani kengaytiramiz. Qisqa nafas olasiz va cho'ziq nafas chiqarasiz.

Bundan tashqari "Pufakchalar", "Bulutlar", "Issiq choy", "Kuz daraxti" kabi mashqlar ham nafas chiqarishning kuchi va uzunligini rivojlantirish maqsadida qo'llanildi.

Bir maromda nafas chiqarish va nafas kuchini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi mashqlardan foydalanishimiz mumkin. "Futbol", "Hayvonlarni boqing", "

"Sham" mashqi

Ushbu mashqning maqsadi: differensial nafas olishni va kuchli nafas chiqarishni rivojlantirish hamda lab mushaklarini faollashtirish;

Mashqni o'tkazish texnikasi: pedagog bolalarga harakatlar ketma-ketligini ko'rsatib beradi. – "... bolalar, shamni bir tekis ushlab turib unga qarab uzoq vaqt puflaymiz. Agarda olov bizdan bir tekisda uzoqlashib tursa, demak, biz bir tekis nafas chiqarayapmiz».

Metodik ko'rsatma: pedagog ushbu metodni 2-3 marta takrorlaydi. Barcha nafas mashqlari faqat tayyorlov sinflarida o'tkaziladi.

Defektolog maxsus o'yinli mashqlardan foydalanib, kar bolalarda to'g'ri nutqiy nafas olish ko'nikmalarini shakllantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga hamda nutqning bir tekisligi va intonatsion ifodaligini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishadi. Nutqiy nafas olish ko'nikmalarini shakllantirish, keyinchalik kelib chiqadigan nutq nuqsonlari profilaktikasida ham eng muhim omildir. Kar bolalar pedagog nutqiga taqlid qilish orqali, yaxshi diksiya ya'ni tovushlar va so'zlarni aniq va tushunarli qilib talaffuz qilishga o'rganadilar. Aynan bir xil tovush taqlidlarini bir necha marta qo'shib talaffuz qilish nutqiy nafasni rivojlanishiga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
2. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.
3. Z.N. Mamarajabova. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) o'quv qo'llanma Toshkent-2017